

## YANGI O'ZBEKISTON MAFKURAVIY MANZARASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Olimova Moxinur Ravshanbek qizi  
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi  
[olimovamoxinur64@gmail.com](mailto:olimovamoxinur64@gmail.com)  
99890 997 64 64

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faoelligini oshirish masalalari tahlil etiladi. Ayniqsa, mafkuraviy jihatdan ongli va faol ayol obrazini shakllantirish yo'lida innovatsion yondashuvlarning o'rni yoritiladi. Maqolada xotin-qizlar uchun yaratilayotgan zamonaviy imkoniyatlar, ta'lif, siyosiy ishtirok, tadbirkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ularning ijtimoiy hayotdagi faoelligini kuchaytirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy-ma'rifiy loyihibar, mentorlik dasturlari va raqamli platformalar orqali xotin-qizlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ilg'or tajribalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekiston taraqqiyotida xotin-qizlar rolini mustahkamlashning zamonaviy yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, xotin-qizlar, mafkura, ijtimoiy faoilik, innovatsion usullar, raqamli texnologiyalar, ayollar huquqlari.

### KIRISH

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'nnaviy salohiyat yetakchi o'ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki "fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya" bilan kurashib olg'a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g'oyasi kuchli bo'lsa, o'sha yengib chiqadi. Ushbu g'oyalarning domiga ko'proq yoshlarni tushib qolayotgani achinarlidir.

Mafkuraviy kurash muayyan g'oyalarni singdirish jarayonini anglatadi. Mafkuraviy kurashning manbaini o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi turli g'oyaviy qarashlarning sohiblari, ularning manfaatlari o'rtaida ziddiyatlarni tashkil etadi. Mafkuraviy kurashlar sodir bo'lishi uchun turli ijtimoiy guruxlarning mavjudligi yetarli emas. Ularning manfaatlari bir-biridan farqlanuvchi g'oyaviy shakllar kasb etgan, sodda qilib aytganda mafkuraviy plyuralizm bo'lgandagina real xarakter kasb etadi. Mafkuraviy kurashlar davrida raqobat va konfrontasiya namoyon bo'ladi. Mafkuraviy kurashni mafkuraviy qarashlarning har qanday ko'rinishini yo'q qilishga, g'oyaviy plyuralizmni bartaraf qilishga qaratilgan xarakatlardan farqlash kerak. Konfrontasiya-(fransuzcha karama-qarshi qo'yish) degan ma'noni anglatadi. Mafkuraviy konfrantasiya aksariyat xollara g'oyaviy sohada mutlaq ustuvor bo'lib kelgan qarashlar tizimi barbod bo'lган, kishilar ko'p yillar davomida shallanib kelgan hayotiy mo'ljallarini yo'qotib qo'yan, sodda qilib aytganda, mafkuraviy beqarorlik vaziyatinining xosilasi hisoblanadi. Mafkuraviy konfrontasiya vayronkor xarakterga ega. Zero, unda dushman deb hisoblangan mafkuralarni yo'qotishga alohida e'tibor beriladi. Mana shunday jarayonda yashovchan, kishilar ruhiyati, orzu umidlari bilan bog'liq mafkuralar g'olib bo'ladi.

## ASOSIY QISM

Shundan kelib chiqqan holda mafkuraviy kurashlar davrida yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda.

Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitusion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikasiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan g‘oya bilan egallashlari ya’ni buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlari xalqqa ayon bo‘lib bormoqda.

XXI asr bo‘sag‘asida tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davalatning, millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni angalab yetish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

“Tahdid” deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy strukturani, to‘g‘rirog‘i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.<sup>35</sup>

“Tahdid” fenomeni, uning siyosiy jihatlari sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarining e’tiborini ham o‘ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSh), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseyev (Rossiya), qolaversa “Rim klub” va Paguosh tinchlik harakati<sup>36</sup> kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin.

“Tahdid” tushunchasi to‘la ma’noda siyosiy leksikonga Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan 1994 yil 22 sentyabrda Oliy Majlis sessiyasida so‘zlagan nutqida birinchi bor kiritildi. Shunday ekan, mamlakatimizda “Tahdid” va uni barataf qilishning ilmiy va amaliy asoslarini ochib berish, ularga chuqur tahlil berish bevosita I.Karimov nomi bilan bog‘langan. Bugungi kunda bu mavzuga daxldor masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv Akademiyasi hamda Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti jamoasi, mamlakatimiz jamiyatshunos

<sup>35</sup> Пахрутдинов.Ш.«Тахдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. 7-8 б

<sup>36</sup> Ўша манба: 6-6.

olimlari tomonidan chuqur o‘rganilmoqda. Uning mohiyati va funksional jihatlari barqarorlik, xavfsizlik, fuqaroviylar hamjihatlik va taraqqiyot kabi global muammolar bilan uyg‘un holda tadqiq etilmoqda.

Tahdidlar turli-tuman: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin. Qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularga nisbatan bamaylixotirlikka yo‘l qo‘yish yoki ularni “saralash” bilan ovora bo‘lib vaqtini boy berish hollari uchrab turadi. XX asr voqyealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sosial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy – iqlimiylar va ma’naviy tahdidlarga ajratib ko‘rish va tahlil etish mumkin.

Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat, yoki xalq, millat, elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmui<sup>37</sup>.

Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o‘z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo‘rqituv, zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga singdirishidir<sup>38</sup>.

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil noan’anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali millatlarning qadriyatları va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlar hisoblanadi.

Bugungi kunda “Ma’naviy tahdid” tushunchasi keng ishlatalmoqda. Ba’zida bu tushunchaning ma’nosini anglash qiyin kechmoqda.

Ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg‘ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki “Tahdid”<sup>39</sup> so‘zi xavf-xatar, xuruj va buzish ma’nolarini anglatadi. Shu ma’noda ma’naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi.

S.M.Yo‘ldosheva tadqiqotlariga ko‘ra, ma’naviy tahdidlar bir necha ko‘rinishdan iborat bo‘lib, birinchi ko‘rinish mafkuraviy xurujlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e’tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozisiyasini o‘zgartirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozisiya shaxsning mafkuraviy nosog‘lomligini anglatadi.

Ma’naviy tahdidning ikkinchi ko‘rinish g‘oyaviy tahdiddir. Bu xuruj ham uch ma’noga ega bo‘lib, bunda asosiy e’tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. Zararli xulq-atvor, nosog‘lom axloqiy munosabat va qo‘pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi.

Ma’naviy tahdidning uchinchi ko‘rinishi informasion xujumdir. Bunda asosiy e’tibor shaxsga noto‘g‘ri ma’lumot berish, shaxs bilimini primitlashtirish va shaxs

<sup>37</sup> Миллий истиқлол гояси. Т.: Академия, 2005. 25 б.

<sup>38</sup> Фалсафа: қомусий луғат. Т.: Шарқ, 2004., 250 б.

<sup>39</sup> Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий қадриятларнинг ўрни. // Т.:2009. 191 б.

faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsnинг madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir<sup>40</sup>.

Xalqimiz ma’naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy leksikonimizda nisbatan yangi kirib kelgan “Ma’naviy tahdid” tushunchasiga turlicha yondoshuvlar mavjud. Falsaфа fanlari doktori G.Tulenovaning «O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash muammolari»<sup>41</sup> maqolasida mafkuraviy tahdidlar, jumladan terrorizm, aqidaparastlik va diniy ekstremizm ma’naviy tahdid sifatida qaralgan.

Rossiyalik tadqiqotchilarning “Rossiya ma’naviy xavfsizligi (ma’naviy xavfsizlikning dolzarb nazariy-metodologik va amaliy muammolari) nomli ilmiy – metodik qo‘llanmasida ma’naviy tahdidlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan<sup>42</sup>. Mazkur qo‘llanmada hozirgi vaqtida ma’naviy xavfsizlikka yetarli darajada e’tibor qaratilmayotganligi ta’kidlangan va ma’naviy tahdidlar sifatida demografik va diniy ongga ta’sir etuvchi tahdidlar tahlil qilingan.

Ye.A.Boksha ma’naviy tahdidlar sifatida Rossiya oilalari turmush tarziga qaratilgan destrukтив xarakterdagi, ma’naviy qarama-qarshiliklarni kelib chiqishiga sababchi bo‘luvchi jarayonlarni rivojlantiruvchi omillarga e’tibor qaratgan<sup>43</sup>. Shuningdek hozirda oilalarning hayotiga qarshi qaratilgan radikal femenizm mafkurasi, gey – madaniyati – g‘oyasini tarqalishi (ommalashuvi), shahvatparastlikning (erotizm) targ‘iboti, Rossiya oilasida egoistik (xudbinlik) qadriyatlarining majburan qabul qilinishi, bozor ideallarining o‘z navbatida ma’naviy asoslarga salbiy ta’sirini ma’naviy tahdidlar sifatida baholagan. Ma’naviy tahdidlar keng qamrovli bo‘lib, mazkur yondoshuvlarda ularning u yoki bu jihatlari hisobga olingan.

I.Islomov tadqiqotlariga ko‘ra, ma’naviy tahdid – shaxs, jamiyat va davlatning ma’naviyat sohasidagi hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug‘diruvchi shart va sharoitlar, omillar majmuidir. Ma’naviyatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va milliy ma’naviy manfaatlar uchun xavf bo‘lgan hodisa va jarayonlarni keltirib chiqaruvchi omillar ma’naviy tahdidlar hisoblanadi<sup>44</sup>.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida qimmatli fikrlarni bildirib o‘tgan: “Jaholatdagi shaharlar, (aholisini) maqsadlarini ko‘zlaydigan (obro‘-izzatga, mol-dunyoga, boylikdan rohatlanishga intiladigan) odamlar esa alohida

<sup>40</sup> Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шаклантиришда ахлоқий қадriятларнинг ўрни. // Т., 2009. 192 б.

<sup>41</sup> Туленова.Г Ўзбекистонда маънавий хавфсизликни таъминлаш муаммолари // Хукуқ. Т.:1999, № 5. 31-36 б.

<sup>42</sup> Архиепская Иоани (Попов) Возьмитель А.А., Хвылия-Олинтер А.И. Духовная безопасность Россия (Актуальные теоретико-методологические и практические проблемы духовной безопасности) Научно-методическое пособие. М., 2005, 108 с.

<sup>43</sup> Бокша Е.А. Духовные угрозы функционированию семьи и современном Российском обществе (социально-философский анализ): Автограф.дисс. – канд.философ.наук. – М., 2008, С.18.

<sup>44</sup> Исламов И.Н. Маънавиятга таҳдид – келажакка таҳдид. Глобаллашув, модернизация ва толерантлик: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Конференция материаллари.-Т.:2009, 57 б.

toifadir. Bunday odamlar fozillar shahrida hali maqsadlar bilan yashash ta'qiqlanganini ko'rib, u yerdagi (adolatli) qonunlarni buzishga, haqiqatga aloqador narsalardan uzoqlashishga, (bu qonun – qoidalar, tasavvurlarni) buzib aks ettirishga urinadilar. Ular bunga ikki yo'l bilan erishadilar: U yuqorida aytilgan bahsli o'rirlarni o'zlaricha taxmin qiladilar, ikkinchidan, soxta donolik va aldov yo'liga o'tadilar. Ular jaholat va tuban maqsadlariga erishuviga hyech kim to'sqinlik qilmasligi uchun shunday yo'ldan boradilar. Bunday odamlarni fazilatli shaharlar jamoasiga qabul qilmaslik kerak"<sup>45</sup>. Farobiy fikridan axloqsizlik g'oyalarini targ'ib etish, ma'naviy tahdidlarni keltirib chiqarishda jaholatdagi va adashgan shaharlar aholisining fikrlash usullari, tutgan yo'llari fozil shahar aholisi uchun qanchalik xatarli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar sirasiga tajovvuzkor millatchilik va shovinizm, neofoshizm va fundamentalizm, rassizm va diniy ekstremizm, neokomunizm kabi g'oyalarini kiritishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mafkuraviy tahdidlarning o'ta xavfli jihatni u, birinchi navbatda jamiyatning ma'naviy sohasini buzib tashlashga yo'naltirilgan. Chunki ma'naviy tafakkur, ma'naviy salohiyat jamiyat taraqqiyotini, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biridir. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila mustaqilligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisol baloqazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglab olmoqda"<sup>46</sup>.

"Ommaviy madaniyat" degan niqob ostidagi axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar yurtning taraqqiyoti, vatanning ravnaqini o'ylagan har bir fuqaroni tashvishga solmasdan qo'yaydi.

Hozirgi dunyoda G'arb individualizmiga xos yana bir illat turmush qurmaslik, ayollarining bola tug'ishni istamasligi bo'lib, bu o'ziga xos demografik inqirozdir. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali o'zining "Men ko'rgan Amerika" esesida "Amerikada oila mustahkam emas. Hatto qachondir oilasiz jamiyat barpo etilishini orzu qiluvchilar topiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1955 yilda Amerika ayollarining faqatgina bir foizi farzand ko'rishni xohlamagan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich besh foizni tashkil qiladi"<sup>47</sup>. AQShlik taniqli siyosatshunos Patrik B'okenenning ta'biri bilan aytganda, G'arbning ko'pgina davlatlarida "belanchakdan ko'ra tobutga ehtiyoj ko'proq". O'n minglab yosh amerikalik ayollar bola tug'ishni istamas ekan, ushbu mamlakatda muhojirlar soni ko'payib boraveradi. Demografik inqiroz oila-nikoh munosabatlarining inqiroziga, u esa, o'z navbatida, xudbinlik-

<sup>45</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.: Халқ мероси нашриёти. 1993, 169 б.

<sup>46</sup> Ўша манба. –Б. 117.

<sup>47</sup> Мухаммад Али. Мен кўрган Америка. Ж // Жаҳон адабиёти. июль, 1998. 132 б.

individualizm tamoyillarining tantanasiga sabab bo‘layotir<sup>48</sup>. Egosentrizm o‘taketgan xudbinlik bo‘lib, faqat o‘zini, o‘z manfaatlarini o‘ylab yashash, boshqa hyech narsani tan olmaslikdir. Egoizm va axloqsizlik falsafasi haqida pedagogika fanlari doktori M.Quronov shunday deydi: “Hozirgi paytda insoniyat hayotida katta xavf tug‘dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va SPID singari ofatlarni ko‘pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko‘zga tashlanmaydigan, ma’naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, hoziroq ularning oldini olmasak, keyin kech bo‘ladi. Bular G’arb olamida keng tarqalgan egosentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir”<sup>49</sup>.

Bu zararli illat jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi. “Loqaydlik, o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yish, xudbinlik, shuhratparastlik kabi salbiy odatalar egosentrizm dardiga duchor bo‘lgan odamning asosiy xususiyatlaridir”, - deydi yetuk olim Muhammadjon Quronov o‘zining “Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi” risolasida<sup>50</sup>. Yuksak ma’naviyat, hamjihatlik, bir so‘z bilan aytganda, milliy mafkurmiz – egosentrizm kabi illalardan qutulishning yagona yo‘lidir. “...butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”!

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”<sup>51</sup>, deydi muxtaram Prezidentimiz o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

G’arb mamlakatlarida toboro avj olib borayotgan bu kabi illatlar mafkuraviy globallashuv jarayonida mustaqillikni qo‘lga kiritgan yosh davlatlarga ham kirib kelayotgani tashvishli holatdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mafkuraviy, ma’naviy tahdid darajasi turli xil ko‘rinishda avj olayotgan bir vaqtida jamiyatda mafkuraviy xavfsizlikni ta’milanishi nihoyatda muhim va dolzarbdir. Shu o‘rinda mafkuraviy xavfsizlik tushunchasining ilmiy tahliliga ham e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

## NATIJALAR

Bugungi kunda “demokratik prinsiplarni” amalgalashuvda oshirish nomi ostida faoliyat yuritayotgan ayrim xorijiy jamoatchilik tashkilotlari tomonidan yoshlar orasida turli-xil konkurslar o‘tkazish, ularni ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalash an’anaga aylanib bormoqda. Shuning bilan birga, jamiyatdagi “kamchiliklar”, “nomukammalliklar”ni aniqlash uchun olimlar jalb qilinmoqda, ularga grantlar ajratilmoqda. Shu kabi jamoatchilik tashkilotlari vakillaridan biri M.Bogner o‘zining tadqiqodlarida O‘zbekistonning mahallalarni ijtimoiy institut sifatidagi faoliyatini keskin tanqid ostiga olgan. M.Bognerning fikricha, maxalla o‘zbek ayollarining erkin faoliyatiga to‘sinqilish qiladi.

<sup>48</sup> Зокиров.Б. Фарб тамаддуни: инқироз аломатлари. Ж.//. Тафаккур 2007, 2-сон, 23 б.

<sup>49</sup> Куронов. М Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. Т.: Академия, 2008, 9 б.

<sup>50</sup> Куронов. М Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. Т.: Академия, 2008, 9 б.

<sup>51</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

"Demokratiya" shiori ostida kirib kelayotgan g'oyalarning mag'ziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hatto ota—она va farzandlar o'rtasida shakllangan o'zaro mehr-oqibatni chetga surib qo'yuvchi "Ota—онанг keksaysa nima qilipti, shunga ham bosh qotirib o'tirasanimi, ana, qariyalar uyi bor, olib borib qo'y. Yashayveradida, qabilidagi bizning qadriyatlarimizga mos kelmagan maslahatlarni uchrashi, ularni demokratiya, erkinlik sifatida qayd etilishi milliy ma'naviyatimizni parokandalikka olib keluvchi ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishidir. Bizda azaldan ota—онани hurmat qilish, ular keksayganda holidan xabar olish eng katta savob ish sifatida qaralib kelingan. Ota o'tirgan tomning ustiga chiqishni gunoh bilish, ota—она keksayganda yetti qavat ko'rachaga o'tqazib siylash kabi odatlarimiz xalqimiz orasida farz deb qaralishi ham bejiz emas. Chunki farzandiga o'zi yeb o'tirgan ovqatini berib, bundan qorni ham ko'ngli ham to'ladigan, og'ir mashaqqatlarga dosh berib farzandlarining ehtiyojlarini qondirishga o'zini fido qilgan ota—оналаримизни qanchalik hurmatini joyiga qo'ysak ham kamlik qiladi.

Bugungi kunda yoshlarning axloqiy jihatdan kamol topishida oiladagi o'zaro hurmat, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashdagi muhim omillardan biri deyishimiz mumkin.

Milliy qadriyatlarimizni tiklash, ommaga keng targ'ib qilish, tinchlik, barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlash, ayniqsa, yoshlarni jamiyatga munosib inson sifatida tarbiyalash kabi masalalarni hal etishda mahalla institutining roli beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 105-moddasiga va 1993 yil sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'z—o'zini boshqarish organlari to'g'risida"<sup>52</sup>gi qonunga binoan, mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyatning tarkibiga kiradi.

1992 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning taklifi bilan Toshkent shahar tajribasidan kelib chiqib, Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 17 oktyabrdagi "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Qarori hamda ta'sischilarining 1992 yil 22 oktyabrdagi birinchi qurultoy qaroriga asosan "Mahalla" xayriya nodavlat jamoatchilik jamg'armasi tashkil etildi. Respublikamizning barcha viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida «Mahalla» jamg'armasining bo'limlari va barcha tuman (shahar)larda bo'linmalari faoliyat ko'rsata boshladi<sup>53</sup>. O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamg'armasining tashkil etilishi to'g'risidagi Prezident Farmonida uning oldiga tarixiy tashkil topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash va izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini keng ommalashtirish, respublika mahallalarida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish shuningdek, mahallada ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash vazifalari qo'yildi.

<sup>52</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>53</sup> Алимов Ф Махалла-ноёб қадрият. Ж // Жамият ва бошқарув 2001, № 08. 44 б

Milliy mafkuramizning o‘ziga xos shakl–shamoyilining vujudga kelishi va targ‘ibotida mahallaning o‘rni beqiyosdir. Mahalla milliy ijtimoiy fenomen sifatida milliy va umuminsoniy g‘oyalarning xalq ishonchi e’tiqodiga aylanishida muhim institutlardan biri hisoblanadi. O‘zini o‘zi boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf–odatlari va an’analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlariniadolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mahalla faollarining sa’y–harakatlari tufayli mahallalarda sharqona urf–datlar, axloq–odob me’yorlarini tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda. Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asarida ilgari surilgan fikr buning yaqqol dalilidir. Unda ma’naviy hayotimizni yuksalitish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan. Mahallalar azaldan milliy qadriyatlar makoni bo‘lib kelgan. O‘zaro mehr–oqibat, ahillik va totuvlik, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim–yesirlarning boshini silash, to‘y–tomosha, hashar va marakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf–odat va an’analar avvalombor mahalla muhitida shakllangan.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi hamda ularni amalga oshiruvchisidir<sup>54</sup>. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz ta’lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘rganlar. Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Forobi yozganidek, ta’lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o‘rganish lozim.

Alloma o‘zining “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida batafsil fikr bayon etadi. Farobi y ta’limotida inson ta’lim yordamida barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish bilan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, odob me’yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ega bo‘ladi. U “Ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o‘z navbatida, Farobiyning «Fozil insonlar jamiyati»da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi.

Farobi y ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergen mutafakkir sanaladi. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - insoniy fazilatni hamda ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. IX-X asrdan keyingi davrlarda yashab o‘tgan allomalar ham inson axloqi, yoshlar tarbiyasi masalasiga oid ko‘p ish olib borganlar. Bu xayrli ishga tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Farididdun Attor, Baxovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Bu allomalarning ijodiy faoliyati, boy ma’naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi.

<sup>54</sup> Баркамол авлод орзузи. - Т.: “Шарқ” нашриёти матбаа концерни. 1999 й, 144.6.

"Mafkuraviy tarbiya - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon<sup>55</sup>. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham o'z g'oyalar ta'siriga tortishga harakat qiladi.

Mafkuraviy tarbiya insonning ijtimoiy hayot haqidagi muayyan bilimlar, baholar va ular zamirida yuzaga keladigan maqsadlar tizimi sifatida chiqishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, mafkura shaxsning ijtimoiy tasavvurlari, bilimlari, qadriyatlar tizimi, hayotiy mo'ljallarining shakllanishiga kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, mafkuraviy tarbiya, ya'ni shaxs jamiyat hayoti, uning taraqqiyot qonunlarini, kuzatilayotgan hodisa, jarayonlarni nechog'li to'g'ri va to'liq tushunishi, o'rinci va adolatli baholashi, qanday maqsadlarni ko'zlab faoliyat olib borishi masalasi ma'naviy tahdidlarning oldini olishda eng dolzarb va ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Har qanday tarbiyada bo'lganidek milliy tarbiyada ham aniq maqsadlar ko'zlanadi. Globallashuv avj olayotgan bugungi kunda milliy tarbiyaning strategik yo'nalishini keng ma'nodagi ma'naviyatimizni millatimizga yot bo'lgan turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, uni yoshlarimiz ongi, qalbi, dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish tashkil qiladi.

Milliy tarbiya oiladan boshlanadi, mahalla va ta'lim tizimida davom ettiriladi. Chunki, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllnadi. Shu ma'noda, oila – haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoy va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi. Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rinn tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analaramizga xos shakllarini qo'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan "jangari" o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmiy kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi. Shu tarzda bolalar ongida milliy qadriyatlarimizga hurmat va qalbida vatanpavarlik tuyg'usi kamol topadi.

Innovasiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va rasionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. Innovasiya –

<sup>55</sup> Фалсафа қомусий лугат.-Т.: Шарқ, 2004, 250 б.

foydalananish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinalarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi. "Innovasiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingen bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. Innovation tushunchasi birinchi bo'lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi. "Innovasiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovation kombinasiyalar" ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshidaavstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovasiyaga har qanday turdag'i yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarash lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovasiyalar kashfiyotlardan farq qiladi. Innovasiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi. Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish. Innovasiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir. Ixtiro – bu yangi konsepsiyanı yaratish demak. Innovasiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

## XULOSA

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotda ko'rib chiqilgan innovatsion yondashuvlar – raqamlı texnologiyalardan foydalananish, mentorlik dasturlari, ijtimoiy tarmoqlardagi faollikni rag'batlantirish, ta'lim va kasbiy rivojlanishga oid ilg'or loyihalar – zamonaviy mafkuraviy maydonda ayollarning rolini kuchaytirishning samarali vositalari sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, mafkuraviy immunitetga ega, ijtimoiy faol, bilimli va tashabbuskor xotin-qizlar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim tayanchi sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda faqatgina huquqiy-me'yoriy asoslarni mustahkamlash emas, balki innovatsion va mafkuraviy yondashuvlar uyg'unligi asosida tizimli ishlov berish muhimdir. Shu bois, davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — xotin-qizlar salohiyatidan to'laqonli foydalananish uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni doimiy takomillashtirib borishdan iboratdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пахрутдинов.Ш.«Таҳдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. 6 б
2. Миллий истиқлол ғояси. Т.: Академия, 2005. 25 б.
3. Фалсафа: қомусий луғат. Т.: Шарқ, 2004., 250 б.
4. Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий қадриятларнинг ўрни. // Т.:2009. 191 б.

5. .Туленова. Г Ўзбекистонда маънавий хавфсизликни таъминлаш муаммолари // Ҳуқуқ. Т.:1999, № 5. 31-36 б.
6. Архиепская Иоани (Попов) Возьмитель А.А., Хвылия-Олинтер А.И. Духовная безопасность Россия (Актуальные теоретико-методологические и практические проблемы духовной безопасности) Научно-методическое пособие. М., 2005, 108 с.
7. Бокша Е.А. Духовные угрозы функционированию семьи и современном Российском обществе (социально-философский анализ): Автореф.дисс. – канд.философ.наук. – М., 2008, С.18.
8. Исламов И.Н. Маънавиятга таҳдид – келажакка таҳдид. Глобаллашув, модернизация ва толерантлик: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Конференция материаллари.-Т.:2009, 57 б.
9. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: Ҳалқ мероси нашриёти. 1993, 169 б.
10. Муҳаммад Али. Мен кўрган Америка. Ж // Жаҳон адабиёти. июль, 1998. 132 б.
11. Зокиров.Б. Ғарб тамаддуни: инқироз аломатлари. Ж//. Тафаккур 2007, 2-сон, 23 б.
12. Қуронов. М Мағкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. Т.: Академия, 2008, 9 б.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.